

Muxtor NAZIROV,

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
katta o'qituvchisi, PhD*

Alisher JAHONOV,

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
magistranti*

AQSH, XITOIY VA ROSSIYANING MARKAZIY OSIYODAGI MANFAATLARI MUVOZANATI

БАЛАНС ИНТЕРЕСОВ США, КИТАЯ И РОССИИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

BALANCE OF US, CHINA AND RUSSIA INTERESTS IN CENTRAL ASIA

Annotatsiya. Ushbu maqolada AQSh, Rossiya va Xitoyning Markaziy Osiyo mintaqasidagi manfaatlari va ta'siri vositalari hamda ularning istiqbollari tahlil qilingan. Mazkur kuch markazlari ta'sirining namoyon bo'lishining turli bosqichlari tahlil qilingan. Mualliflar Markaziy Osiyo mamlakatlarining postsovet davrida AQSh-RF-XXR uchburchagidagi kuchlarni turlicha qabul qilgani va bu ularning ko'pvektorli tashqi siyosati shakllanishining muhim shartlaridan biri bo'lgani borasida fikr yuritadi. Shu jihatdan maqolada Rossiya, AQSh va Xitoyning Markaziy Osiyodagi manfaatlarining muvozanati mintaqa davlatlarining rivojlanishini va mustaqil tashqi siyosiy yo'nalishini ta'minlayotgani qayd etiladi.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, Rossiya, Xitoy, AQSh, manfaatlar, geosiyosat, geoiqtisodiyot.

Аннотация. В данной статье анализируются интересы и способы влияния США, России и Китая в Центральноазиатском регионе и их перспективы. Проанализированы различные этапы проявления влияния этих центров силы. Авторы утверждают, что страны Центральной Азии в постсоветский период по-разному воспринимали силы в треугольнике США-Россия-Китай, и это было одним из важных условий формирования их многовекторной внешней политики. В связи с этим в статье отмечается, что баланс интересов России, США и Китая в Центральной Азии обеспечивает развитие стран региона и независимую внешнюю политику.

Ключевые слова: Центральная Азия, Россия, Китай, США, интересы, геополитика, геоэкономика.

Annotation. This article analyzes the interests and influence of the United States, Russia and China on the development of Central Asia, as well as their prospects in the region. Various stages of manifestation of the influence of these centers of power are analyzed. The authors argue that the countries of Central Asia in the post-Soviet period perceived the forces in the USA-Russia-China triangle differently, and this was one of the important conditions for the formation of their multi-vector foreign policy. In this regard, the article notes that the balance of interests of Russia, the United States and China in Central Asia ensures the development and independent foreign policy of the countries of the region.

Keywords: Central Asia, Russia, China, the USA, interests, geopolitics, geoeconomics.

KIRISH

Sobiq Sovet Ittifoqining dunyo sahnasidan chiqib ketishi butun xalqaro munosabatlar tizimiga katta ta'sir ko'rsatdi. Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston va Qozog'iston singari yangi mustaqil davlatlar Yevroosiyoning markazida yangi mintaqa – Markaziy Osiyoni shakllantirdilar. Markaziy Osiyo har doim yetakchi mamlakatlar o'rtasidagi geosiyosiy raqobat hududi bo'lib kelgan. Bugungi kunda Markaziy Osiyo nafaqat katta rivojlanish salohiyatiga ega, balki uni amalga oshirish yo'lidagi muammolarga ham egadir. Mintaqa mineral resurslarning ulkan zaxirasi, demografik imkoniyatlari, dunyo ummonlariga chiqish imkoniyati zaif bo'lgan makon, kam diversifikatsiyalangan iqtisodiyot bilan birlashtirilgan davlatlardan iborat. Beqaror Afg'onistonga yaqinlik, chegaralarning zaif himoyasi va radikal islomizmning kuchayishi Markaziy Osiyo davlatlari uchun xavf tug'diradi.

Mintaqa birinchi galda iqtisodiy hamkorlikdan foyda ko'rishni istaydigan tashqi hamkorlarni jalb qiladi. Ammo yuqorida aytib o'tilgan tahdidlar qo'shni davlatlar uchun beqarorlashtiruvchi omil bo'lib, mintaqaviy ishlarga tashqi aktorlarning aralashuvini taqozo etadi.

Shunisi e'tiborga molikki, ko'plab kuch markazlarining Markaziy Osiyo mintaqasida o'z manfaatlariga ega: Rossiya, Xitoy, AQSh, Turkiya, Eron, Yevropa Ittifoqi, Hindiston va boshqalar. Shunga qaramay, mintaqaga postsovet makonining

eng yirik mamlakati Rossiya, tobora ko'proq iqtisodiy va siyosiy qudratga ega bo'layotgan Xitoy va global manfaatlarni ko'zlagan AQSh eng katta ta'sirni ko'rsatmoqda. Ushbu mamlakatlarning manfaatlari nafaqat bir-biriga mutanosib, balki bir-biriga qarama-qarshi ham bo'ladi. Shunday ekan, AQSh-Rossiya, Xitoy-AQSh munosabatlaridagi muammolar, Xitoy va Rossiya integratsiya loyihalarining juftlashtirilishi Markaziy Osiyo mamlakatlarining o'zaro hamkorlik qilishida aks etmoqda.

ASOSIY QISM

Markaziy Osiyoda AQSh manfaatlarining rivojlanishi

AQSh Markaziy Osiyoga e'tiborini sobiq SSSR qulashi natijasida mintaqada yangi mustaqil davlatlar tashkil topganidan beri qaratib kelmoqda. 90-yillar davomida AQShning Markaziy Osiyodagi asosiy maqsadi ommaviy qirg'in qurollarining tarqalishiga yo'l qo'ymaslik edi.

Umuman olganda, AQSh manfaatlarining o'zgarishini uch bosqichga bo'lish mumkin. 1991-2001 yillari mintaqada uchta ustuvor vazifa belgilandi:

- yadro quroli va ommaviy qirg'in qurollari muammosini hal qilish;
- Markaziy Osiyo mamlakatlariga ularning suverenitetini mustahkamlashda ko'maklashish;
- Rossiya bilan quvur tizimlariga aloqador an'anaviy infratuzilma aloqalarini yo'q qilish.

Ikkinchi bosqich xavfsizlik sohasidagi manfaatlar birinchi o'ringa chiqqan 11-sentabr voqealaridan so'ng boshlandi. NATO va AQSh manfaatlarini bir-biridan ajratish deyarli mumkin emas, chunki "Vashington nafaqat Ittifoqning amaliy faoliyatini belgilaydi, balki undan birinchi navbatda o'z manfaatlarini ilgari surishda ham foydalanadi". [1]

Bu, ayniqsa, 2001-yil 11-sentabr voqealaridan so'ng boshlangan AQShning Markaziy Osiyodagi siyosatining ikkinchi bosqichida yaqqol ko'rinadi. Afg'onistondagi harbiy operatsiyalarini moddiy-texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash zarurati, AQSh uchun harbiy va ta'minot bazalarining joylashtirilishiga imkon yaratadigan Markaziy Osiyo davlatlarining ushbu operatsiyalarda ishtirokini taqozo etar edi. Keyinchalik AQSh "Markaziy Osiyo davlatlari bilan xavfsizlik

sohasida uzoq muddatli aloqalarini o'rnatishni niyat qilgan edi, bu esa zarurat tug'ilganda bazalarga kirish imkoniyatini o'z ichiga olishi mumkin edi"[2]. Natijada, harbiy aloqalar va o'zaro iqtisodiy hamkorlikni qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda demokratlashtirish niqobidagi tashqi aralashuvlar AQShning mintaqamamlakatlari bilan munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Chorak asr davomida bu choralar Markaziy Osiyo davlatlarini Rossiya va Xitoy bilan yanada yaqinlashtirgani namoyon bo'ldi.

AQShning mintaqadagi yumshoq kuchi demokratik printsiplarni ommalashtirishga va G'arb turmush tarziga asoslangan bo'lib, o'z-o'zini anglash imkoniyatlarini izlayotgan yosh avlodga, shuningdek, demokratik tamoyillarga sodiq bo'lgan rahbarlarga qaratilgan edi.

Barak Obamaning 2013-yilda "Xavfsizlikka ko'maklashish xalqaro kuchlari" vazifalarini cheklashini e'lon qilishi bilan Amerikaning mintaqadagi manfaatlarining yangi bosqichi boshlanadi. O'zaro munosabatlarning sovishi, Markaziy Osiyo mamlakatlari hududidagi bazalarining yopilishi, harbiylar va harbiy harakatlar sonining kamayishi Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlikning qisqarishiga olib keldi. 2014-yilda boshlangan yangi "Qat'iy qo'llab-quvvatlash" operatsiyasiga qaramay, mintaqaga e'tibor kuchaymadi. Amerikalik olim F.Starr AQShning Afg'onistonni tark etish rejalarini, bu AQShning mintaqadagi ta'siriga hamda Markaziy va Janubiy Osiyo iqtisodiy integratsiyasi loyihasiga salbiy ta'sir qiladi, deya tanqid qildi.

Amerikaning iqtisodiy manfaatlariga haqida gapirganda, shuni aytish joizki, Markaziy Osiyo mamlakatlarining yalpi ichki mahsulotining kichikligi, dengizga chiqish imkoniyati cheklangani, korrupsiyaning yuqori darajasi va mintaqaning AQShdan olisligi kabi omillar bilan izohlanadi. Shunga qaramay, AQSh geosiyosiy manfaatlarini ko'zlab, ushbu mintaqada iqtisodiy mavqega ega bo'lishga harakat qildi. Postsovet davrida Amerika kompaniyalari tezda mintaqaning neft va gaz zaxiralarini o'zlashtirishga kirisha boshladilar. Rossiya, va keyinchalik Xitoy ta'sirini kamaytirish va energetika segmentida konsolidatsiya qilish uchun quyidagilar amalga oshirildi: xalqaro taraqqiyotga yordam (rivojlanayotgan mamlakatlarga rasmiy yordam), to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar,

shuningdek TAPI (Turkmanistondan Afgʻoniston, Pokiston va Hindistonga gaz quvuri), CASA-1000 (Qirgʻiziston va Tojikistondan Pokiston va Afgʻonistonga elektr energiyasini oʻtkazish loyihasi), C5 + 1 (besh Markaziy Osiyo davlatlari va AQShni birlashtiradigan muzokaralar maydoni), Yangi Ipak yoʻli (AQShning Markaziy va Janubiy Osiyoni yagona makrorayonga integratsiya qilish boʻyicha rejasi), Trans-Kaspiy quvuri (Turkmaniston va Qozogʻistondan Kavkazga va undan keyin Yevropaga gaz quvuri) va boshqalar.

Hozirda AQSh mintaqadagi ishtirokini kuchaytirishga harakat qilmoqda, buni AQShning 2019–2025 yillarga moʻljallangan Markaziy Osiyo boʻyicha yangi strategiyasi tasdiqlaydi. AQShning mintaqadagi asosiy oʻzgarmas manfaati mintaqada Rossiya va Xitoyning kuchayib borayotgan taʼsiriga qarshi turishdir.

Markaziy Osiyoda Xitoy manfaatlarining kengayishi

Xitoyning 90-yillardagi siyosati asosan Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil mamlakatlar bilan doʻstona munosabatlarni oʻrnatishga, ishonchli qoʻshnilar bilan taʼminlashga qaratilgan boʻlib, bu Xitoyning mintaqadagi keyingi siyosatini belgilab berdi. Dastlab Xitoy oldida Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Tojikiston va Rossiya bilan chegara masalalarini hal qilish vazifasi turgan edi. Chegaradagi kelishuvning barcha ishtirokchilari bilan yaxshi qoʻshnichilik munosabatlarining oʻrnatilishi “Shanxay beshligi”ni shakllantirish uchun asos yaratdi, bu esa keyinchalik 2001-yilda ShHTga aylandi.

Taʼkidlash joizki, Xitoy Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan doʻstona va barqaror munosabatlardan manfaatdor, bu esa Xitoyning milliy xavfsizligini va geosiyosiy va geoiqtisodiy rejalarining bajarilishini taʼminlaydi. Xitoy gʻarbiy qoʻshnilari bilan chegara masalasida murosaga kela oldi va xavfsizlik sohasida hamkorlikni chuqurlashtirdi. Mintaqa mamlakatlari va Xitoy radikalizm, terrorizm, ayirmachilik va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish boʻyicha hamkorlik qilishdan manfaatdor. Ushbu siyosat ShHT doirasida rasmiylashtirildi.

Iqtisodiy hamkorlikka kelsak, hozirgi vaqtda Xitoy Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun asosiy iqtisodiy sherikdir. Jadal iqtisodiy oʻsish, savdo ekspansiyasi, ulkan demografik salohiyat

va toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalarning sezilarli darajada kengayishi Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlarida iqtisodiy va siyosiy taʼsiri kuchayishiga olib keldi.

90-yillarda Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlari oʻrtasidagi iqtisodiy oʻzaro aloqalar miqyosi katta boʻlmagan va faqat neft sektoriga qaratilgan edi. Xitoyning uglevodorod resurslarga boʻlgan oʻsib borayotgan ehtiyoji “neft va gaz sohasida jahon energetika bozori yangi ishtirokchilarining, shu jumladan postsovet makonining ishtirokini” oshirishga majbur qildi. 2000-yillardan boshlab neft va gaz tashish uchun infratuzilmani jadal qurish jarayoni boshlandi. Shu davrda Qozogʻiston, Oʻzbekiston va Turkmaniston energetika bozorlarida Xitoy transmilliy kompaniyalarining kuchayishi kuzatildi, bu esa Xitoyning ushbu mamlakatlardan resurslarni isteʼmol qilishi hajmining oshirilishiga yordam berdi. Markaziy Osiyo mamlakatlari Rossiya infratuzilmasi va Gʻarb investitsiyalariga qaramligi sababli, “aynan Xitoy bozorni diversifikatsiya qilish maqsadlarini amalga oshirdi”. [3]

2013-yilda “Bir makon, bir yoʻl” tashabbusi eʼlon qilinganidan keyin Markaziy Osiyo mamlakatlarining Xitoy uchun ahamiyati sezilarli darajada oshdi. Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari orqali transit imkoniyatidan foydalanish uchun infratuzilma loyihalari va transport tizimiga keng koʻlamda investitsiyalar kiritila boshladi.

Yana bir muhim omil – bu bogʻlangan kreditlash orqali loyihalarni moliyalashtirishdir, yaʼni “loyihalarni amalga oshirishda Xitoy materiallari, uskunalari, texnologiyalari yoki ishchi kuchidan foydalanish”dir. Xitoyning Markaziy Osiyodagi iqtisodiy taʼsiri ortishi AQShning mintaqadan bosqichma-bosqich chiqib ketishi bilan birga kechdi.

Markaziy Osiyoda Xitoy taʼsirining ortib borishi ham yangi istiqbollarni, ham yangi vazifalarni yaratmoqda. Ham Xitoy iqtisodiy ekspansiyasi, ham tarixiy xurofotlar sabab mintaqa aholisi orasida ishonchsizlik va sinofobiya kuchaymoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun Xitoy yumshoq kuch siyosatidan foydalanmoqda. U Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan tashqi aloqa, taʼlim va ilm-fan sohalarida oʻzaro aloqalarni kuchaytirmoqda.

Shunday qilib, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston mustaqilligining butun davrida XXR barcha mamlakatlar uchun eng muhim iqtisodiy sherikka aylandi. Xitoy iqtisodiy loyihalarisiz mintaqaning izchil rivojlanishini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Xitoyning Markaziy Osiyodagi manfaatlarining bosqichma-bosqich kengayishi tashqi omillarga unchalik bog‘liq bo‘lmagan va Xitoyning ichki manfaatlariga yo‘naltirilgan jarayon ekanligi kuzatish mumkin.

Markaziy Osiyoda Rossiya siyosatining o‘zgarishi

90-yillarda Rossiya tashqi siyosatida Markaziy Osiyoning ustuvorligi chuqur iqtisodiy tanazzul va armiyaning zaiflashishi kabi muammolar va bir qator sabablarga ko‘ra pasayib ketdi. Mintaqaning yangi mustaqil davlatlarida milliy o‘zlikning kuchayishi ham Rossiyaga nisbatan munosabatlarga ta’sir ko‘rsatdi. Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy integratsiyaga muvaffaqiyatsiz urinishlar Rossiyaning mintaqaga maqsadlar aniq ifodalangan strategiyasi mavjud bo‘lmaganidan dalolat beradi.

Afg‘onistondagi aksilterror operatsiyasi sababli AQShning Markaziy Osiyodagi mavqei mustahkamlanishi, tabiiyki, Rossiya xavfsizlik sohasida minqada o‘z pozitsiyasini mustahkamlashiga yangi turtki tomonidan berdi. Bu 2002-yilda Kollektiv xavfsizlik shartnomasining institutsionalizatsiyasiga, ya’ni Rossiya yaqqol ustunligiga asoslangan Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti tuzilishiga olib keldi.

Rossiya 2000-yillarda postsovet hududi, shu jumladan Markaziy Osiyo mintaqasi ham xavfsizlik, ham iqtisodiy nuqtai nazardan Rossiya manfaatlarini zonasi ekanligini e’lon qildi. Mintaqa davlatlari bilan iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan siyosat olib borildi. Rossiyaning mintaqadagi siyosiy va iqtisodiy mavqeini ikkitomonlama harbiy-texnikaviy hamkorlik va harbiy bazalarni joylashtirish orqali hamda AQShning Markaziy Osiyodagi “demokratlashtirish siyosati” sababli mustahkamlandi.

Rossiyaning Markaziy Osiyodagi siyosatida yangi bosqich 2007-yilda prezident V.Putinning “Myunxen nutqi” bilan boshlanadi. Buyuk davlat mavqeiga qaytish uchun Rossiya Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlarini yanada qat’iyat bilan himoya qila boshladi, ya’ni AQShning

mintaqadan chiqib ketishiga va Markaziy Osiyo neft va gaz infratuzilmasi Sharqqa yo‘naltirilishining oldini olishga intildi. Postsovet hududida Rossiya asosiy institutlarning, shu jumladan MDHning salohiyatini kuchaytirishga intildi”. [4]

Xavfsizlik nuqtai nazaridan bugungi kunda Rossiyaning asosiy manfaati barqarorlikni ta’minlash va mintaqa davlatlarining radikallashtirishining oldini olish hamda Markaziy Osiyo mamlakatlarining siyosiy tizimlarini mustahkamlashdan iborat. Rossiya uchun mintaqa Afg‘oniston va Pokiston o‘rtasida xavfsizlik bufer hududi, xususan Afg‘onistondan giyohvand moddalar kontrabandani bartaraf etishda alohida rol o‘ynaydi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari Rossiyaning izchil rivojlanishi uchun strategik va geoiqtisodiy ahamiyatga ega. Mintaqa Rossiya tovarlari va investitsiyalari bozori bo‘lib, energetika strategiyasi uchun alohida ahamiyatga ega va zarur mehnat resurslarini yetkazib beradi. Rossiyaning yirik neft va gaz kompaniyalari o‘z kapitalini mintaqaning yoqilg‘i-energetika kompleksiga faol kiritmoqda. Moskva energetika strategiyasining eng muhim qismi Yevropa uchun eksport qiluvchi va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun tranzit mamlakat monopoliyasini saqlab qolishga qaratilgan.

Deyarli barcha Markaziy Osiyo mamlakatlari eksportchilari va importchilari orasida Rossiya yuqori uchlikka kiradi. Bu, asosan Markaziy Osiyo mamlakatlaridan tabiiy qazilma boyliklar va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari importi bilan izohlanadi. Mintaqa davlatlarining Rossiya integratsion loyihalari doirasida izchil rivojlanishi rasmiy Moskva uchun eng muhim nuqtadir. Rossiya mintaqadagi umumiy hamkorlikka qaramay, Xitoyning iqtisodiy ta’sirini kuchaytirishidan manfaatdor emas, biroq iqtisodiy salohiyat borasida mintaqada Xitoy bilan raqobatlasha olmaydi.

Rossiyaning yumshoq kuch, shubhasiz, uning mintaqadagi siyosatining eng muhim parametrlaridan biridir. Bunda rus tili va madaniyati hamda rus tilidagi axborot makoni asosiy ta’sir vositalari sifatida qaralishi mumkin. Mintaqada rus tilida so‘zlashuvchi aholi manfaatlarini himoya qilish Rossiyaning yumshoq kuch siyosatida muhim o‘rin tutadi, chunki, aks holda mintaqa bilan aloqalar va Rossiyaning mavqei yo‘qolishi mumkin.

Umuman olganda, Rossiya mintaqada strategik geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlarga ega. Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan chuqur o'zaro bog'liqlik va uzun chegara Rossiyaning mintaqaga e'tiborini belgilaydi. Mintaqada barqarorlikni ta'minlash va radikallashtirishning oldini olish Rossiya tashqi siyosatining eng muhim vazifalaridan biridir. Iqtisodiy manfaatlar ham asoslar mavjud, ammo ularni amalga oshirish darajasi kuchli emas.

Markaziy Osiyoda Rossiya – Xitoy – AQSh uchburchagi manfaatlari

AQSh Xitoy va Rossiyaning Markaziy Osiyo mintaqasidagi manfaatlaridagi ustuvor yo'nalishlarni quyidagi jadvalda qiyosiy tahlil qilish mumkin.

Manfaatlar	Rossiya	Xitoy	AQSh
Hududiy	Mavjud emas	Mavjud emas	Mavjud emas
Iqtisodiy	Ustuvor	O'rtacha ahamiyatga ega	Mavjud emas
Harbiy	Ustuvor	Mavjud emas	Ayni damda mavjud emas
Geo-siyosiy	Ustuvor	O'rtacha ahamiyatga ega	Birinchi darajali ahamiyatga ega emas
Resurs	O'rtacha ahamiyatga ega	Ustuvor	O'rtacha ahamiyatga ega
Mintaqa xavf-sizligi	Ustuvor	Ustuvor	O'rtacha ahamiyatga ega
Madaniy	O'rtacha ahamiyatga ega	Mavjud emas	Mavjud emas

Manba: Mualliflar tomonidan [1], [3], [4], [6], [8], [11], [13], [14], [16], [18] materiallardan foydalangan holda tuzildi.

Ta'kidlash joizki, yuqoridagi kuch markazlari manfaatlarni ro'yobga chiqarishda o'zaro raqobatlashadi, hatto boshqa davlatni cheklash ularning manfaatlarini himoyasiga aylangan. Masalan, AQShlarning 90-yillardagi siyosati bir qutbli dunyoni saqlab qolishga qaratilgan edi. Z.Bzejinskiy nazariyasiga ko'ra, "Yevroosiyoda hukmron va antagonistik kuchning tiyib turilishi Amerikaning global ustunlikni amalga oshirish

qobiliyatini belgilaydi". G'arb geosiyosatining mumtoz vakili H.Makkinder Markaziy Osiyo ustidan nazorat butun qit'ada nazoratni ta'minlashini qayd etgan edi. Markaziy Osiyo orqali "G'arb, pravoslav va Xitoy olamini musulmon dunyosidan ajratib turuvchi tarixiy yoriqning bir qismi kesib o'tadi. Bu yo'lda, S.Xantington bashoratiga ko'ra, "sivilizatsiyalar to'qnashuvi" avj olmoqda". [5]

Shunday qilib, 90-yillarda AQShning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaati ushbu mintaqada nazoratni mustahkamlashdan iborat ekanligini ko'rish mumkin. Ayniqsa Afg'onistondagi operatsiya davomida AQShning mintaqadagi harbiy-siyosiy aloqalarining kuchayishi istiqbolda Xitoy va Rossiya zaiflashuvini nazarda tutar edi. Xitoy va Rossiya Yevroosiyoning markazida joylashgan Markaziy Osiyoda o'z o'rnini egallash imkoniyatini qo'ldan boy bera olmas edi. KXShTning tashkil etilishi, Markaziy Osiyoda Rossiya harbiy bazalarining paydo bo'lishi va ShHT Xartiyasining imzolaniishi, bu davrda Xitoy va Rossiyaning javob reaksiyalaridan dalolat beradi.

Shu o'rinda savol to'g'riladi: nima uchun Xitoy va Rossiya muvofiqlashtirilgan holda harakat qildilar? D.Babayan "Pekin va Moskva G'arbning, avvalambor AQShning dunyodagi muhim mintaqalarida ta'sirini "cheklash" uchun tomonlarning "mas'uliyat sohalari"ni belgilab olganlar" deb hisoblaydi. [13]

Bunday holda, haqiqatan ham, 90-yillarda Xitoy mintaqadagi iqtisodiy va siyosiy ta'sirini sezilarli darajada kuchaytirishi mumkin bo'lgan bo'lsa-da, u Moskvaning ta'sir doirasini hurmat qilgan va faqat chegara masalalarini hal qilishga e'tibor qaratgan edi. Yaxshi qo'shnichilik munosabatlari sharoitida Rossiya mintaqaning xavfsizligi uchun mas'ul bo'lishi Xitoy uchun qulay fursat edi. Xitoy Rossiyaning barcha zamonaviy bosqichlarida integratsiyalashgan loyihalaridan shubhalanmadi, mamlakatlar o'rtasidagi alohida aloqani tan oldi.

Xuddi shu davrda AQSh neft va gaz quvurlari tizimi orqali tranzit bo'yicha Rossiya monopoliyasini olib tashlash va uglevodorodlar oqimini G'arbga yo'naltirish bo'yicha loyihalarni faol ilgari surdi. Biroq ko'plab loyihalardagi ob'ektiv muammolar va o'zaro munosabatlarning

sovuqlashuvi tufayli AQSh mintaqadagi pozitsiyasi kuchsizlashdi, mos ravishda Xitoy Markaziy Osiyo resurslari uchun kurashga kirishdi. Natijada Rossiya va Xitoy yangi quvur liniyalari loyihalari Markaziy Osiyo mamlakatlaridan neft va gaz yetkazib berishni to'liq o'z zimmasiga oldi. Shu tariqa Markaziy Osiyodagi "quvur diplomatiyasida" asosan AQSh-Rossiya-Xitoy uchburchagi ichida kuchlarning manfaatlari qurilgan.

Mintaqadagi kuchlarning manfaatlarini oshirishning navbatdagi bosqichi integratsion birlashmalar atrofida yuzaga keldi. Dastlabki bosqichda Rossiya ishtirokchilar soni iloji boricha ko'p bo'lishini istadi, AQSh "Katta Markaziy Osiyo va Yangi Ipak yo'li" loyihasi doirasida Markaziy Osiyo davlatlarini Janubiy Osiyoga yo'naltirishni rejalashtirdi, Xitoy esa SHHT doirasida integratsiyalashishga intildi. Barcha loyihalar u yoki bu tarzda boshqa tomonlarning ta'sirini kamaytirishga intildi.

Xitoy va Rossiya o'rtasida Markaziy Osiyodagi "kelishuv" mamlakatlarning AQSh bilan aloqalaridan va boshqa mintaqalardagi mavjud vaziyatdan kelib chiqqan holda shakllangan. Rossiya Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlariga nazoratsiz iqtisodiy kirib borishini oldini olishni istaydi, bu esa xitoy tovarlari bilan murosasiz raqobatni keltirib chiqaradi. Qarama-qarshi manfaatlarning yanada qatlamlanishi bilan "Xitoy Markaziy Osiyoda hozirgi o'zini-o'zi cheklash siyosatidan voz kechishga qaror qilishi mumkin". [6] Biroq, Xitoyning Markaziy Osiyoda iqtisodiy ta'siri ortib borayotganiga qaramay, Pekin mintaqada ko'proq siyosiy vositalarga ega bo'lgan Moskva orqali Markaziy Osiyoda harakat qilish zarurligini tushunadi. [7]

Shunday qilib, Rossiya va Xitoy o'z manfaatlarini ko'zlaydilar, lekin o'zaro munosabatlardagi "jamoaviy hamkorlik" sharoitida harakat qiladi.

2020-yilda ommaga havola etilgan AQShning Markaziy Osiyo bo'yicha yangi Strategiyasiga muvofiq, Markaziy Osiyoda Amerika siyosatini rivojlantirishida yangi bosqich bo'lishi mumkin. Hujjatga ko'ra, Rossiya va Xitoy dunyo tartibotini politsentrik tizimga aylantirish uchun yashirin kurash ketayotgan asosiy "revisionist kuchlar" sifatida baholanmoqda. Geosiyosiy manfaatlar

ustunlik qiladigan Markaziy Osiyoda bir-biriga qarshi turish AQSh uchun ham, Rossiya uchun ham "nolga teng o'yindir". Buni AQShning "boshqa tashqi hukmron doiralarni yovuz kuchlar" deb belgilaydigan va ularni raqib holatiga keltiradigan mintaqadagi yangi strategiyasi tasdiqlaydi. [8]

Rossiya – AQSh – Xitoy manfaatlari uchburchagi sharoitida Markaziy Osiyo mamlakatlari tomonidan kuchlarning manfaatlarini anglashi katta ahamiyatga ega. Dastlabki bosqichlarda AQSh xatti-harakatlarining Markaziy Osiyo mamlakatlari tomonidan afzal ko'rilishi Rossiya monopol ishtirokini muvozanatlash zarurati bilan izohlanadi. G'arb davlatlari ham sarmoyalar manbai va mintaqaviy muammolarni hal etishga ko'mak sifatida muhimroq deb ko'rilgan. Keyinchalik, AQShning mintaqani demokratlashtirishga qaratilgan tashqi aralashuv siyosati salbiy qabul qilindi va bu jarayonda mintaqqa mamlakatlari o'z suvereniteti himoyasida Rossiyaning muvozanatlashtiruvchi kuch sifatida ko'rdilar. Bugungi kunda xalqaro vaziyat boshqacha bo'lib, ba'zi Markaziy Osiyo mamlakatlari AQShga o'sib borayotgan Xitoy va Rossiya ta'sirini nazorat qilish imkoniyati sifatida qaramoqda.

Markaziy Osiyoda Xitoyning taraqqiyot va sarmoyalar manbai deb bilishadi va uning iqtisodiy va texnologik imkoniyatlaridan foydalanish manfaatlidir. Xitoy kredit yoki investitsiyalarni mintaqqa mamlakatlarining demokratik darajasi bilan bog'lamaydi. Biroq, shu bilan birga, "mintaqaning ayrim mamlakatlari aholisi ongida istiqbolda dunyo gegemoni va tajovuzkor sifatida namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan" Xitoydan "favotir" kuchaymoqda. [9] Ushbu nomutanosiblik Xitoy kompaniyalarining iqtisodiy faolligi tez sur'atlarda o'sishi, ma'lumotlar yetishmasligi va mintaqada Xitoy yumshoq kuchining zaifligi bilan bog'liq.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida Rossiyaning avvalgi "katta og'a" sifatida emas, balki sherik va ittifoqdosh sifatida ko'rishmoqda. Bu "Rossiya siyosati Markaziy Osiyoning har bir davlati sharoitlariga juda sezgirli va ularga individual yondashuvlarni ishlab chiqishda moslashuvchanligini namoyish etishi" bilan izohlanadi. [10] Rossiya Xitoyning siyosiy bosimga aylanib borayotgan iqtisodiy ta'sirini

muvozanatlashda yordam berishi mumkin. Rossiya bilan siyosiy hamjihatlik hozirgi paytda Xitoy ekspansiyasining salbiy jihatlari bartaraf etishga imkon beradi.

XULOSA

Umuman olganda, Markaziy Osiyoda qarama-qarshilik darajasi Janubi-Sharqiy Osiyo, Sharqiy Yevropa yoki Yaqin Sharqqa qaraganda ancha past hisoblanadi. Shu sababli, mintqa mamlakatlari ko'pvektorli siyosat olib borish imkoniyatiga ega hamda Xitoy, Rossiya va AQSh bilan yaxshi munosabatlar o'rnatishga intilishmoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlari o'zlarining mustaqil taraqqiyoti davomida AQSh-Rossiya-Xitoy uchburchagidagi kuchlarni turlicha qabul qildi. Mintaqa mamlakatlari tomonidan ko'pvektorli tashqi siyosat yuritilishi mazkur kuch markazlari bilan yaxshi munosabatlarni qo'llab-quvvatlashga yordam berdi. Shu maqsadda ijobiy munosabatlar dinamikasini ta'minlashning samarali mexanizmi mintaqada o'ziga muvozanat shakli rivojlanadi. Rossiya, AQSh va Xitoy manfaatlarining muvozanati Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun hayotiy ahamiyatga ega bo'lib, mintaqada barqaror vaziyatni vujudga keltirgan holda mintqa mamlakatlari taraqqiyoti va mustaqil tashqi siyosiy kursni ta'minlaydi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Белоборов Ю. Что ищет НАТО в краю далеком? // РСМД. 2018. https://russiancouncil.ru/analytics-and-comments/columns/asian-kaleidoscope/chto-ishchet-nato-v-krayu-dalekom/?sphrase_id=32043063
2. The Brookings Institution: United States Foreign Policy in the States of Central Asia — 2002. <https://www.brookings.edu/events/united-states-foreign-policy-in-the-states-of-central-asia>
3. Olcott M. China's unmatched influence in Central Asia // Carnegie Endowment for International peace. September 18, 2013. <https://carnegieendowment.org/2013/09/18/china-s-unmatched-influence-in-central-asia-pub-53035>
4. Концепция внешней политики Российской Федерации: указ Президента РФ от 12 июля 2008 г. № 1440. <http://kremlin.ru/acts/news/785>
5. Попов Д. Политика США в Центральной Азии и российские стратегические интересы // Доклад на заседании Ученого Совета РИСИ. Москва, 2016. <https://riss.ru/analytics/30426/>
6. Zogg B. Cooperation, Co-existence or Clash? China and Russia's Ambitions in Central Asia // The Diplomat. 2019. <https://thediplomat.com/2019/11/cooperation-co-existence-or-clash-china-and-russias-ambitions-in-central-asia>
7. Gusev L. The Importance of Central Asia for Russia's Foreign Policy // Italian Institute for international political studies. 2019. <https://www.ispionline.it/en/publicazione/importance-central-asia-russias-foreign-policy-24071>
8. Zeng Xianghong: «A Review of America's New Strategy for Central Asia» // Research on International Issues — Issue 2, 2020. <https://www.ciis.org.cn/english/>
9. Иманалиев М. Китай и Центральная Азия: постсоветское развитие // Международный дискуссионный клуб «Валдай». 2017. https://ru.valdaiclub.com/a/highlights/kitay-i-tsentrlnaya-aziya-postsovetское-razvitie/?sphrase_id=21355
10. Dubnov A. Reflecting on a Quarter Century of Russia's Relations with Central Asia // Carnegie Endowment for International Peace. 2019. <https://carnegieendowment.org/2018/04/19/reflecting-on-quarter-century-of-russia-s-relations-with-central-asia-pub-76117>
11. Kausikan B., Starr F., Cheng Y. Central Asia: All Together Now // The American Interest. 2017. <https://www.the-americaninterest.com/2017/06/16/central-asia-all-together-now/>
12. Азмуханова А.М., Джумадилова Г.М., Амзенова Ж.Ж. Интересы Китая в Центральной Азии (аналитическая справка) // Society and Security Insights. — №1, 2018. — С. 186–194.
13. Бабаян Д. Политика Китая в Центральной Азии, на Кавказе и в Северном Прикаспии в конце XX — начале XXI вв.: дис. д-ра исторических наук // Институт востоковедения РАН. 2016. — С. 429.
14. Барановский В. Содействие международному развитию как инструмент внешней политики: зарубежный опыт / под ред. В. Барановского, Ю. Квашина, Н. Тогановой // ИМЭМО РАН. — Москва, 2018. — 248 с.
15. Глазьев С.Ю., Архипова В.В., Агеев А.И. [и др.] Вопросы и состояние процессов сопряжения Евразийского экономического союза и инициативы «Один пояс — один путь» в представлениях Китая и России // Евразийская интеграция: экономика, право, политика. — № 3, 2019. — С. 13-30.
16. Глинкина С.П. Китайская стратегия освоения постсоветского пространства и судьба Евразийского союза. Институт экономики РАН.

- Москва, 2016. – С. 59.
17. Грозин А. Россия в Центральной Азии: сотрудничество и перспективы энергетического партнерства со странами региона // Восточная аналитика. 2019. – С. 23–34.
 18. Жуков С., Резников О. Центральная Азия и Китай: экономическое взаимодействие в условиях глобализации. – М.: ИМЭМО РАН, 2009. – 180 с.
 19. Кашин В., Королев А. Помощь КНР странам Центральной Азии // Мировая экономика и международные отношения. Т.62. №3, 2018. – С. 78–85.
 20. Кефели И.Ф., Шамахов В.А. Геополитические и геоэкономические аспекты взаимодействия ЕАЭС и ЕС в формате Большого евразийского партнерства // Евразийская интеграция: экономика, право, политика. №4, 2019. – С. 17–25.
 21. Картунов А., Ларюэль М. Россия и США в Центральной Азии: ограничения и возможности сотрудничества. РСМД. №49, 2019. – 38 с.
 22. Кузьмина Е. Экономическое сотрудничество России с государствами Центральной Азии // Россия и Центральная Азия: новые перспективы: материалы междунар. науч. конф., посвященной 25-летию установления дипломатич. отношений между РФ и государствами Центральной Азии. МГИМО, 2018. – С. 164–184.
 23. Лаумулин М. Стратегические интересы России в государствах Центральной Азии на современном этапе // Россия и мусульманский мир. – №12, 2009. – С. 98–112.
 24. Никитенко В. Евразийские векторы сотрудничества стран — участников Шанхайской организации сотрудничества по обеспечению международной и региональной безопасности // Международное сотрудничество евразийских государств: политика, экономика, право. №1, 2018. – С. 25–33.
 25. Сафранчук И. Концепция «Новый шелковый путь» и политика США в «Большой Центральной Азии» // Международная жизнь. №7, 2013. – С. 43–53.
 26. Фань С. Стратегия США по распространению влияния в регионе Центральной Азии как общая угроза для России и Китая // Международные отношения. №3, 2018. – С. 55–64.
 27. Шамахов В.А., Случевский В.В. Некоторые аспекты сопряжения проектов ЕАЭС «Один пояс — один путь» // Евразийская интеграция: экономика, право, политика. №1, 2019. – С. 28–33.
 28. Brzezinski Z.K. The Grand Chessboard: American Primacy and Its Geostrategic Imperatives. 1st ed. 1997. – P. 217.
 29. United States Strategy for Central Asia 2019–2025: Advancing Sovereignty and Economic Prosperity: Report of the Bureau of South and Central Asian Affairs // U.S. Department of State. 2020.